



BESH QADAM

G.S. Zakirova

Senior teacher of Filology and
Teaching Languages Department
Institute of International school of
Finance technology and science
Email:sadikovna1120@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta’lim tizimini isloh qilish jarayonida zamonaviy texnologiyalar va ilg‘or metodlarni qo’llashning ahamiyati bayon etilgan. “Besh qadam” metodining har bir bosqichi: “Tanishuv”, “Bilimlarni faollashtirish”, “Faol ma’ruza”, “Ma’lumotlar bilan ishlash” va “Qayta aloqa” qadamlarining mohiyati va amaliy qo’llanishi haqida batafsil ma’lumot berilgan.

Kalit so’zlar: metod, teskari sinf, faollashtirish, tizimlashtirish, qayta aloqa, motivatsiya, just intervyyu, ma’ruza.

Аннотация: В данной статье описывается важность использования современных технологий и передовых методов в процессе реформирования системы образования. Подробно раскрыта суть и практическое применение каждого шага метода «Пять шагов»: шаги «Введение», «Активация знаний», «Активная лекция», «Работа с данными» и «Обратная связь».

Ключевые слова: метод, обратный класс, активация, систематизация, обратная связь, мотивация, парное интервью, лекция.

Annotation: This article describes the importance of using modern technologies and advanced methods in the process of reforming the education system. The essence and practical application of each step of the “Five Steps” method is revealed in detail: the steps “Introduction”, “Knowledge Activation”, “Active Lecture”, “Working with Data” and “Feedback”.

Key words: method, reverse class, activation, systematization, feedback, motivation, paired interview, lecture.

INTRODUCTION

Fan, texnika va texnologiyalar yutuqlari asosida ta’lim tizimini isloh qilishda davr sinovlaridan o’tgan ilg‘or tajribalarni o’rganish hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni e’tiborga olgan holda ularning joriy etilishini ta’minlash raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning muhim omili sanaladi. Shu jumladan, yangi ta’lim sistemasi xorijiy tillarni o’rgatish strategiyasini yangi bosqichlarga ko’tarib, kelajak uchun poydevor bo’la oladigan kuchli mutaxassislar tayyorlashni o’z oldiga maqsad qilib qo’ymoqda. Bu maqsadga erishish uchun yosh mutaxassislarni tayyorlashda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish zarur. O’qitishning faol metodlaridan biri besh qadam metodini ko’rib chiqamiz.

1chi qadam – «Tanishuv»

2chi qadam – «Bilimlarni faollashtirish»

3chi qadam – «Faol ma’ruza»

4chi qadam – «Ma’lumotlar bilan ishlash»

5chi qadam – «Qayta aloqa»

Birinchi qadam “Tanishuv” yoki Akrostix deb ham ataladi. Bu she’rning har bir satrining bosh harflaridan tuzilgan mazmunli matn (so‘z, ibora yoki jumla). Matn yordamida talabalar bir-birlari bilan yaqindan tanishadilar. Birinchi darsda shu metodni qo’llash maqsadga muvofiq bo’ladi. Masalan:

Nature

Ambitious

Responsible

Generous

Innovative

Zero

Apple

Nargiza ismi keltirilgan. Nature-u tabiatni sevuvchi inson. Ambitious – barcha ishlarni bajarishda xarakatchan. Responsible – yuklatilgan vazifani o‘z vaqtida bajaradi, javobgar. Generous – saxiy, mehribon qo‘lidan keladigan yaxshilikni ayamaydi. Innovative – darslarda yangi ped texnologiyalardan unumli foydalanadi. Z – uning shiori o‘z karyerasida boshlang‘ichdan boshlab ekspert darajasiga erishish. A – u olmani yaxshi ko‘radi.

Ushbu ma’lumotlar bilan tanishgan talaba gruppadagi do’stlari haqida ko‘p ma’lumotga ega bo’ladi va bu metod orqali talaba so‘z boyligini oshiradi.

Ikkinchi qadam “Bilimlarni faollashtirish” va biz bilimlarni faollashtirish uchun tavsiya etiladigan metodlarni ko‘rib chiqamiz. Ingliz tili fani bo‘lgani uchun eng ommalashgan metod bu juft intervyyu. Talabalar o‘qituvchi bergen mavzu asosida juft bo‘lib bir-birlariga savol beradilar. Savollar quyidagicha bo‘lishi mumkin:



Where are you from? What is your hobby? Where do you live?

Yana aqliy xarita, mantiqiy zanjir, teskari sinf, “six thinking hats” metodlari ham bilimlarni faollashtirishga xizmat qiladi.



Aqliy xarita – ma’lumot va g‘oyalarni mantiqiy tartibga solishga va tushunchalarni orqali yaratishga yordam beradi

Mantiqiy zanjir – bir nechta qarashlarni bir-biriga bog‘lash fikrlarni tahlil qilish

**SIX THINKING HATS**

Teskari sinf usuli mustaqil o‘rganishni boshqarish uchun mo‘ljallangan aralash ta’limdir

Muzokarada berilgan materialni har xil nuqtai nazardan muxokama va tahlil qilish

Uchinchi qadam – faol ma’ruza. Flipped classroom yoki teskari sinf metodi. Teskari sinf – ma’ruza orqali emas balki sinfda talabalarini tushunishiga qaratilgan. Bu yerda sinfning an'anaviy modeli qayta ko‘rib chiqiladi, uy vazifasi sinfda bajariladi, ma’ruza uyda ko‘rib chiqiladi. Teskari sinf usuli odatda oldindan yozib olingan videolar, o‘qishlar yoki onlayn modullar orqali o‘quv mazmunini sinfdan tashqarida amalga oshirish orqali an'anaviy o‘qitish tuzilmasini o‘zgartiradi. Keyin talabalar ushbu materialni mustaqil ravishda o‘z tezligida, ko‘pincha uy vazifasi sifatida o‘rganadilar, dars vaqt esa o‘quvchilarga ilgari taqdim etilgan tushunchalarni qo‘llash va chuqurroq tushunish imkonini beruvchi hamkorlikdagi faoliyatlar, muhokamalar va amaliy mashqlar uchun ishlatiladi. Teskari sinf usuli bir nechta asosiy tamoyillarga asoslanadi:

Faol ta’lim: to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘qitishni sinfdan tashqariga ko‘chirish orqali o‘qituvchilar sinf vaqtini tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va talabalar o‘rtasida hamkorlikni rivojlantirishga yordam beradigan faol o‘rganishga bag‘ishlashlari mumkin.

O‘quvchiga yo‘naltirilgan yondashuv: talabalarga o‘z ta’lim sayohatiga egalik qilish imkoniyatini berish mustaqillikka va materialni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Talabalar turli xil o‘rganish uslublari va sur’atlariga moslashish uchun kerak bo‘lganda to‘xtatib turishi, orqaga o‘tkazishi va kontentni ko‘rib chiqishi mumkin.

Differentsiatsiya: teskari sinf modeliga xos bo‘lgan moslashuvchanlik o‘qituvchilarga o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini qondirish uchun ta’limni farqlash imkonini beradi. O‘qituvchilar qo‘srimcha yordam ko‘rsatishi yoki talabalarning taraqqiyoti va tushunishiga qarab qo‘srimcha imkoniyatlar taklif qilishi mumkin.

Ishtirok etishning ortishi: diqqatni passiv tinglashdan faol ishtirokga o‘tkazish orqali teskari sinf o‘quvchilarning faolligi va motivatsiyasini oshirishi mumkin. Talabalar bu jarayonda faol ishtirok etsalar, o‘z ta’lim jarayoniga ko‘proq jalb qilinadi.

Umuman olganda teskari sinf metodi o‘qitishning natijalarini yaxshilaydi, talabalarning mavzuni chuqurroq tushunishlarini ta’minlaydi.



To‘rtinchi qadam – ma’lumotlar bilan ishlash. Faol tizimlashtirish – axborotni idrok etish, faol qayta ishlash va tizimlashtirishga o‘rgatish; tizimlashtirish orqali mavjud bilimlarni tashkil qilishni o‘rgatish; har xil turdagи diagrammalar asosida ma’lumotlarni takrorlash qobiliyatini rivojlantirish; hamkorlikni o‘rgatishdan iborat. Masalan, ingliz tilida hozirgi noaniq zamonning darak, inkor va so‘roq shakllari sxema ko‘rinishida beriladi. Talaba bu shakllarni bir biridan farqlay olishi kerak.

Beshinchi qadam – qayta aloqa.

Qayta aloqaning maqsadi – talabaning harakatlarini to‘g‘rilash orqali u eng yaxshi maqsadiga erishadi. Qayta aloqaning eng muhim 6 ta qoidasi:

aniq yutuqlarni maqtash
o‘z vaqtida fikr bildirish
qayta aloqa muhim
talabalar tilida gapirishga harakat qilish
"sendvich" to‘g‘ri bo‘lishi kerak
baholovchi mulohazalardan qochish

Talabalarni ozgina yutug‘i uchun ham maqtash kerak. Bu motivatsiyani va ularning faolligini oshiradi. Ba’zi talabalarda o‘ziga bo‘lgan ishonch ortadi va ular yana ham faol bo‘ladilar.

CONCLUSION

Xulosa qilib aytganda oqitishning “besh qadam” metodi talabalar o‘rtasidagi hamkorlik, tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv va o‘z-o‘zini baholash kabi ko‘nikmalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, zamonaviy raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda muhim omil sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Novak, J. D., & Cañas, A. J. "The Theory Underlying Concept Maps and How to Construct Them." 2008
2. Barkley, E. F., Major, C. H., & Cross, K. P. "Collaborative Learning Techniques." 2014
3. Bates, A. W. Teaching in a Digital Age: Guidelines for Designing Teaching and Learning. Tony Bates Associates Ltd. 2015
4. Mazur, E. "Peer Instruction: A User’s Manual." 19.